



PEDAGOGIK METODIKADA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Yuldasheva Bikajon Yo‘ldosh qizi

Shomurodova Sevinch Xurshid qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Anotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta‘lim jarayonida pedagogik metodikada innovatsion yondashuvlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Unda axborot-kommunikatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, modulli ta‘lim, loyiha asosida ta‘lim va gamifikatsiya kabi zamonaviy ta‘lim texnologiyalarining mazmuni yoritilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarning o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish, bilim olish jarayonida motivatsiyani kuchaytirish hamda ta‘lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlari: pedagogik metodika, innovatsion yondashuv, interfaol metodlar, loyiha asosida ta‘lim, gamifikatsiya, ta‘lim texnologiyalari.

KIRISH. Bugungi globallashuv davrida ta‘lim tizimida yangicha qarashlar, ilg‘or tajribalar va innovatsion metodikalarni qo‘llash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishini kuchaytirish hamda ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish pedagogik metodikalarning yangilanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois innovatsion yondashuvlar ta‘limda asosiy omillardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Zamonaviy ta‘lim tizimida pedagogik metodika doimiy ravishda yangilanib, ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyoti bilan hamnafas rivojlanmoqda. Innovatsion yondashuvlar o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish va ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagogik metodikada innovatsion yondashuvlarni joriy etish bugungi ta‘lim jarayonining muhim sharti hisoblanadi”[8].

XXI asrda dunyo jamiyatining tez rivojlanishi va global integratsiyaning kuchayishi sharoitida ta‘lim tizimi ham o‘zgarishga majbur. Zamonaviy ta‘limning asosiy vazifasi, o‘quvchilarga bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini, ijodiy yondashuvini va hayotiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Bu esa, an‘anaviy ta‘lim metodlaridan uzoqlashish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Maqola, shuningdek, o‘quvchilarning kognitiv va emotsional rivojlanishiga innovatsion yondashuvlarning ta‘siri, ta‘lim sifatini oshirishda ularning roli va o‘qituvchilarni innovatsion



Learning and Sustainable Innovation

yondashuvlarni qo'llashga tayyorlash masalalarini ham ko'rib chiqadi. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, o'quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish, ijodiy fikrlash, muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari, pedagogik ta'limotlar nazariyasi doirasida innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishining muhimligini ta'kidlaydi[9].

Innovatsiya-yangilik" so'zining qachon paydo bo'lganligi aniq bo'lmasada, bu tushuncha umumiy fanlarga tabiiy fanlardan kirib kelganligi haqida fikrlar mavjud. Bugungi kunda ta'lim sohasida yangi ilmiy yo'nalish - ta'limiy innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalarining paydo bo'lishi natijasida ta'limiy faoliyatda ham yangi yo'nalish "innovatsion faoliyati" tushunchasi paydo bo'ldi. Innovatsion faoliyat - pedagogning o'z kasbini mukammallashtirish va uni takomillashtirishdagi mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni egallashida ijodiy yondashuvini nazarda tutadi[7].

Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib talim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. Innovatsiya" so'zi yangilik, o'zgarish, rivojlanish degan ma'noni bildiradi. Pedagogik jarayonda innovatsiya – bu ta'lim jarayoniga ilg'or g'oyalar, zamonaviy texnologiyalar, ijodiy metodlar va samarali usullarni tatbiq etishdir. U o'quvchilarning bilimini oshirish bilan birga, ularni mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va hayotiy ko'nikmalarni egallashga yo'naltiradi. Innovatsiya – bu yangilik kiritish, mavjud tizimni modernizatsiya qilish demakdir. Pedagogik metodikada innovatsion yondashuvlar o'qituvchi faoliyatida yangi metodlar, texnologiyalar va interaktiv vositalardan foydalanishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb qiladi, ularning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshiradi. Innovatsion yondashuvlarning muhim jihatlaridan biri — ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirishdir. Har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi



va ehtiyojidan kelib chiqib ta'lim jarayonini tashkil qilish yuqori samaradorlikka olib keladi. Shuningdek, kreativ metodlardan foydalanish o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), elektron ta'lim (ET-learning), masofaviy ta'lim platformalari, multimedia vositalaridan foydalanish bugungi ta'lim jarayonida keng imkoniyatlar yaratmoqda. Interaktiv taxtalar, virtual laboratoriyalar, test va simulyatsiyalar o'quvchilarni faollashtirib, ta'limni samarali qiladi. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – ta'lim jarayonini zamon talablariga moslashtirish va uning samaradorligini oshirishdir. Pedagogik metodikada innovatsion yondashuvlardan foydalanish, an'anaviy ta'lim shakllarini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Innovatsiya – bu yangilik kiritish, mavjud tizimni modernizatsiya qilish demakdir. Pedagogik metodikada innovatsion yondashuvlar o'qituvchi faoliyatida yangi metodlar, texnologiyalar va interaktiv vositalardan foydalanishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb qiladi, ularning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshiradi[6].

Innovatsion yondashuvlarning afzalliklari:

- O'quvchilarni faollashtiradi.
- Bilimlarni mustahkam o'zlashtirish imkonini beradi.
- Mustaqil va kreativ fikrlashni rivojlantiradi.
- Zamonaviy mehnat bozoriga mos kadrlarni tayyorlashga yordam beradi.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim jarayoni o'qituvchidan nafaqat bilim berishni, balki zamonaviy metodlar yordamida o'quvchini mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga o'rgatishni talab etadi. Shu bois pedagogik metodikada innovatsion yondashuvlar asosiy ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA.

Pedagogik metodikada innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etish va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion texnologiyalardan oqilona foydalanish ta'limni yangi bosqichga olib chiqadi, yosh avlodni mustaqil fikrlovchi, ijodkor va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantiradi. Pedagogik metodikada innovatsion yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Bugungi kunda o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashini yo'naltiruvchi, ularni faoliyatga jalb etuvchi shaxs bo'lishi lozim. Shunday ekan, har bir pedagog ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni tatbiq etib,



o‘quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratishi zarur. Pedagogik metodikada, o‘quvchini mustaqil fikrlovchi, ijodkor va zamonaviy bilimlarga ega shaxs sifatida shakllanadi. Pedagogik metodikada innovatsion yondashuvlar bugungi ta‘limning eng muhim talabi hisoblanadi. Chunki ular o‘quvchini nafaqat bilimli, balki tashabbuskor, ijodkor va raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, o‘qituvchilarning innovatsion metodlardan samarali foydalanishi — ta‘lim sifatini oshirish va kelajak avlodni yetuk inson qilib tarbiyalashning kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayev N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2019.
2. Ziyomuhamedov B. Pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Xodjayev M. Ta‘lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: Universitet, 2021.
4. To‘raqulov, J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
5. Ziyomuhamedov, B. va Abdullayeva, Sh. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O‘qituvchi, 2009.
6. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.
7. Saydulloyevich, Ochilov Y., and Xolova M. Shavkatovna. "Scientific Activity and Spiritual Heritage of Imam Ghazali." *European Scholar Journal*, vol. 3, no. 6, 10 Jun. 2022, pp. 19-22.
8. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, X. M. (2022). Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 19-22.
9. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, K. M. (2021). Developing Healthy Thinking In Students As A Pedagogical Problem. *European Journal Of Life Safety And Stability (2660-9630)*, 12, 424-429.